

8-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI.

I chorak BSB (bob bo‘yicha summativ baholash) mavzulari va topshiriqlari.

			O‘tkazilish muddati	Ball
1-BSB				
№		Mavzular		
1.		So‘zboshi	14-20.10. 2024-yil (1 hafta davomida)	50 ball
2.		XIII asr boshlarida Xorazm davlatida siyosiy vaziyat		
3.		Xorazm va Mo‘g‘ul davlati o‘rtasidagi munosabatlar		
4.		Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va buning oqibati		
5.		Jaloliddin Manguberdi		
		Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatini tiklash yo‘lida		
Formativ baholash				10 ball
Jami ball				

8-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI
BSB-1.

II variant. Sana: _____
Sinf _____ O'quvchining F.I.SH. _____

1-topshiriq. Alouddin Juvayniyning “Tarixi jahongusho” asarida keltirilgan manbadan foydalanib, Inochiqning vafoti to‘g‘risida ma’lumot bering. Maksimal 10 ball.

This image shows a blank sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and extend across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

2-topshiriq. Tarixiy shaxsga oid ma'lumot kimga tegishli ekanligini aniqlang va shaxs nomini yozing. Maksimal 10 ball.

№	Ma'lumot	Shaxs
1	1216-yili Sulton Muhammad tomonidan Xitoyda bo'lib turgan Chingizxon huzuriga elchi qilib yuborildi	
2	U Olmaliq hukmdori edi va Chingizxonning Movaraunnahrga qilgan yurishi chog'ida mo'gul lashkariga kelib qo'shildi	
3	1206-yilda Onon daryosi bo'yida chaqirilgan mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida unga "Chingizxon" – ulug' xon (qoon) deb e'lon qilindi	
4	Chingizxon hujumi davrida buxoroliklar o'z himoyachilaridan ayrilgandan so'ng shahar ahlini saqlab qolish niyatida o'zaro maslahatlashib, uning boshchiligida bir guruh oqsoqollar Chingizxon huzuriga yo'l oldilar	
5	U Fanokat (Banokat) hokimi edi. U mo'g'ullarga 3 kun davomida qarshilik ko'rsatishni uddalay oldi xolos.	

3-topshiriq. Quyida berilgan tarixiy atamalarni izohlang. Maksimal 10 ball.

№	Atamalar	Mazmuni
1.	<i>Maymana</i>	
2.	<i>Xofiya</i>	
3.	<i>Mataris</i>	
4.	<i>Kezik</i>	
5.	<i>Jo'yi arziz</i>	

4- Jadvalda berilgan shaharlarning Chingizxon hujumiga qarshi mudofaasi haqida ma'lumot bering. Maksimal 10 ball.

№	Shahar	Mudofaa tafsiloti
1	<i>Buxoro mudofaasi</i>	
2	<i>Samarqand mudofaasi</i>	

5-topshiriq. Berilgan savollarga qisqa javob yozing. Maksimal 10 ball.

1. Jaloliddin va Temur Malik shaharni tark etgach, Urganch mudofaasi kimning qo‘lida qoladi?

2. Jaloliddin Manguberding mo‘g‘ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g‘alabasi qayerda bo‘lgan?

3. Jaloliddin va Shiki Xutuxu o‘rtasidagi jang qayerda bo‘lib o‘tgan?

4. Niso qo‘rg‘oni hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?

5. Jaloliddin Manguberdi Ozarboyjondagi qaysi shaharni o‘z davlati poytaxtiga aylantirgan?
